

Boshqaruv Raisi
Tetrashvili S.

SAVDO EKVAYRING SHARTNOMASI

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Mazkur hujjat “TBC BANK” aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) bankda hisob raqamiga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataladi) savdo ekvayring shartnomasini (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb ataladi) tuzish uchun rasmiy taklifi (keyingi o‘rinlarda “Oferta” deb ataladi) hisoblanadi.
- 1.2. Shartnoma tuzish uchun Mijoz ushbu Ofertani uning shartlariga roziligini aniq ko‘rsatadigan harakatlarni amalga oshirish orqali, shu jumladan tbcbusiness.uz tizimidagi shaxsiy kabinetida elektron tasdiqlash orqali qabul qilishi kerak.
- 1.3. Oferta qabul qilingan vaqtdan boshlab uning shartlari Bank va Mijoz (bundan keyin birgalikda “Tomonlar” deb ataladi) uchun majburiydir va Tomonlar o‘rtasidagi huquqlar, majburiyatlar va boshqa o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu Oferta Bank tomonidan tasdiqlangan va uning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan: www.tbcbank.uz.
- 1.4. Ushbu Ofertani qabul qilishda Mijozning tasdig‘i:
 - 1.4.1. Mijoz ushbu Shartnomaning barcha shartlariga, shu jumladan uning Ilovalari va Tariflariga to‘liq va so‘zsiz roziligini tasdiqlaydi hamda e‘tirozlar, da‘volar yo‘qligi yoki qo‘shimcha tushuntirishlar zarur emasligini bildiradi. Mijoz Shartnomaning mazmuni unga ma‘lum, tushunarli va to‘liq qabul qilinganligini tasdiqlaydi. Mijoz ushbu Shartnomaning barcha qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladi va ularni buzganlik uchun javobgar bo‘ladi.
 - 1.4.2. Mijoz o‘z roziligini beradi va Bankka quyidagini amalga oshirish uchun vakolat beradi:
 - 1.4.2.1. Mijozning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi istalgan bankda ochilgan hisobvarag‘idan ushbu Shartnoma bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarish;
 - 1.4.2.2. ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida Mijozning shaxsiy ma‘lumotlariga ishlov berish, shu jumladan bunday ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga berish, shuningdek, transchegaraviy uzatish;
 - 1.4.2.3. raqamli shaklda, shu jumladan Bankning elektron tizimlari orqali tuzilgan hujjatlarni to‘liq yuridik kuchga ega bo‘lgan qog‘ozda rasmiylashtirilgan hujjatlarga teng deb tan olish.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Shartnomada quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalaniladi:

- 2.1. **Avtorizatsiya** - emitentdan Operatsiyani amalga oshirish uchun ruxsat olish tartibi.
- 2.2. **Emitent** – Kartani chiqargan va karta saqlovchisiga tegishli bank hisob raqamini ochgan bank.
- 2.3. **To‘lovni qaytarish** – Mijoz tomonidan ma’qullangan va Bank tomonidan belgilangan shaklda amalga oshiriladigan, Karta bo‘yicha xarid qilingan tovarlar, ishlar yoki xizmatlardan Karta

saqllovchisining voz kechishi natijasida pul mablag'larini qaytarish. Pulni naqd pulda qaytarish imkoni mavjud emas.

- 2.4. **Karta saqllovchi** – nomiga Karta chiqarilgan va/yoki Karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini tasarruf etish, berilgan huquqlar doirasida Karta yordamida to'lov operatsiyalari va boshqa harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.
- 2.5. **ERP- integratsiya** (Enterprise Resource Planning) – Mijozning ERP-tizimiga amalga oshirilgan tranzaksiyalar haqidagi ma'lumotlarni avtomat tarzda uzatishni ta'minlaydigan POS-terminalning funksional imkoniyati.
- 2.6. **Ekvayring** – Kartalardan foydalangan holda operatsiyalar bo'yicha tovarlar/xizmatlar sotuvchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish.
- 2.7. **KBX** – "TBC Bank" ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatishning Bosh Shartlari.
- 2.8. **Karta** – Bank, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan boshqa tijorat banki yoki kartalarni chiqarish vakolatiga ega bo'lgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida faoliyat yurituvchi boshqa tashkilot tomonidan chiqarilgan, Karta hisobvarag'i bo'yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi karta.
- 2.9. **Karta hisobvarag'i** – Kartaga bog'langan va uning yordamida pul mablag'larini tasarruf etish amalga oshiriladigan hisob.
- 2.10. **Uskuna** – Mijozga taqdim etiladigan, karta saqllovchisiga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan texnik vositalar. Uskunalariga NKM va/yoki POS-terminal kiradi.
- 2.11. **PIN-kod** – karta hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi va uchinchi shaxslarning kirishini cheklovchi kartaning shaxsiy identifikatsiya raqami. Maxfiy axborot hisoblanadi.
- 2.12. **To'lovchi** – Shartnomada ko'zda tutilgan har qanday usul bilan Tranzaksiyani amalga oshirgan jismoniy shaxs, jumladan karta saqllovchisi.
- 2.13. **To'lov tizimi (TT)** – UZCARD, HUMO, VISA, MASTERCARD va O'zbekistonda va/yoki uning tashqarisida amal qiluvchi, Kartalarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish qoidalarini belgilovchi boshqa to'lov tizimlari.
- 2.14. **Natijalarni solishtirish** – Barcha amalga oshirilgan tranzaksiyalar to'lov tizimiga qayta ishlash uchun uzatiladigan onlayn operatsiya.
- 2.15. **Slip** – Karta bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyani tasdiqlovchi kvitansiya bo'lib, unda summa, tur, sana hamda karta va uskunani aniqlash uchun zarur ma'lumotlar mavjud.
- 2.16. **Stop-list** – Karta saqllovchisi, Bank yoki To'lov tizimining tashabbusi bilan tranzaksiyalar taqiqlangan kartalar ro'yxati (shu jumladan yo'qolganda, o'g'irlanganda va hokazo).
- 2.17. **Tranzaksiya** – Uskuna orqali tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lov uchun karta orqali amalga oshiriladigan to'lov.
- 2.18. **Chargeback** – Emitentning tashabbusi bilan, To'lovchining da'vosi asosida yoki To'lov tizimi qoidalariga ko'ra Ekvayerning hisobvarag'idan nizoli Tranzaksiya summasini ushlab qolish.
- 2.19. **Chek** – Karta orqali tranzaksiya amalga oshirilganini tasdiqlovchi sotuv kvitansiyasi.
- 2.20. Ushbu Umumiy shartlarda aniqlanmagan atamalar va ta'riflar To'lov tizimi hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, Tomonlar o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarda belgilangan ma'nolarda qo'llaniladi hamda so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi va talqiniga muvofiq, jumla kontekstidan kelib chiqqan holda tushuniladi.

3. ASOSIY SHARTLAR

- 3.1. Ushbu Shartnoma doirasida Bank Mijozga uskunalar orqali karta saqlovchilarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, Tariflarda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni taqdim etish majburiyatini oladi.
- 3.2. Mijoz sotiladigan tovarlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni karta saqlovchilaridan Kartalardan foydalangan holda qabul qiladi, shu munosabat bilan Bank Mijozga Tranzaksiyalar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan uskunalarni taqdim etadi.
- 3.3. Mijoz amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha har kuni Natijalarni Solishtirish va tegishli Sliplarni rasmiylashtirish majburiyatini oladi.
- 3.4. Mijozga ushbu Shartnomaning 7-bo'limida belgilangan tartibda POS-terminal taqdim etiladi. Bankka taqdim etilgan Mijozning so'roviga ko'ra nazorat-kassa mashinasi (NKM) funksiyasidan foydalanish imkoniyati ham taqdim etilishi mumkin.

Uskunalar Mijozga Shartnomaning amal qilish muddati davomida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun taqdim etiladi. Bank uskunasi Shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so'ng/bekor qilingandan so'ng, 1 (bir) bank kuni ichida, shuningdek, nosozlik/yaroqsizlik holatida almashtirilganda, jismoniy eskirishni hisobga olgan holda, topshirilgan holatda Bankka qaytarilishi kerak.

- 3.5. Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'mda) amalga oshiriladi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank huquqlari:

- 4.1.1. Uchinchi shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qilish, shuningdek, ularni ushbu Shartnoma doirasida o'z majburiyatlarini bajarishga jalb etish. Agar tegishli xizmatlarni ko'rsatish uchinchisi shaxslar tomonidan belgilangan shartlarga, shu jumladan ommaviy ofertalarga rozilikni talab qilsa, Bank Mijozdan bunday rozilikni tasdiqlashni so'rashga haqli;
- 4.1.2. Quyidagi hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (uni ijro etishdan to'liq voz kechish) va Uskunani qaytarish:
 - a. Mijoz ushbu Shartnoma qoidalarini buzgan bo'lsa, shu jumladan, agar Mijoz bir kalendar oy davomida Karta saqlovchilariga xizmat ko'rsatmasa;
 - b. Bank Uskunalari Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarini buzgan holda yoki boshqa maqsadda ishlatilsa;
 - c. Mijoz Bank uskunalarini soz holatda saqlash va ularga tegishli texnik xizmat ko'rsatish majburiyatlarini bajarmasa;
 - d. Mijoz Bank uskunasining texnik yoki tashqi holatini sezilarli darajada yomonlashtiradigan harakatlarga (harakatsizlikka) yo'l qo'ysa;
 - e. Bankda Uskunadan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanilayotganligi haqida asosli shubhalar mavjud bo'lsa. Bunday holda, Bank ko'rsatilgan shubhalar aniqlangan kuni shartnomani bekor qilishga haqli;
 - f. Mijozga nisbatan hisobvaraqdagi pul mablag'lari xatlangan yoki hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq to'xtatilgan bo'lsa;
 - g. Mijozga yoki u bilan bog'liq shaxslarga nisbatan xalqaro yoki milliy sanksiyalar joriy etilgan bo'lsa;
 - h. ushbu Shartnomada bevosita ko'zda tutilgan boshqa hollarda.
- 4.1.3. Bank tomonidan Uskuna orqali shubhali (gumonli) operatsiyalar amalga oshirilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, Mijoz tomonidan ko'rsatilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi yozma tushuntirish taqdim etilgunga qadar Shartnomaning

- amal qilishini bir tomonlama tartibda vaqtincha to'xtatib turish, Uskunani Shartnomaning amal qilishi to'xtatib turilgan davrda albatta Bankka qaytarish;
- 4.1.4. Quyidagi hollarda Mijozning Tranzaksiya bo'yicha pul mablag'larini o'tkazishni to'xtatib turish:
- a. Mijoz tomonidan Bank Uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzilganligi sababli Tranzaksiya to'g'risidagi ma'lumotlar noto'g'ri shakllantirilgan bo'lsa;
 - b. Karta saqlovchisi tomonidan tegishli tranzaksiyaga nisbatan da'vo arizasi kiritilsa va ushbu da'vo O'zbekiston Respublikasining vakolatli sudi tomonidan qanoatlantirilsa va qonuniy kuchga kirsas;
 - c. Mijozga nisbatan qayta tashkil etish yoki tugatish tartib-taomili joriy etilsa. Bunday holda, tugatish komissiyasining yoki boshqa vakolatli organning tegishli qarori olingunga qadar, Tranzaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish to'xtatib turiladi;
 - d. Mijoz mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa.
- 4.1.5. Tranzaksiya bo'yicha pul mablag'larini o'tkazishni rad etish va agar Tranzaksiya Bank uskunasidan foydalanish qoidalarini buzgan holda va/yoki Mijozning aybi bilan boshqa noto'g'ri usulda qayta ishlashga yo'naltirilgan bo'lsa, bunday Tranzaksiyani qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarni Mijoz zimmasiga yuklash.
- 4.1.6. o'zgartirishlar kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Mijozni oldindan xabardor qilgan holda, Bankning rasmiy veb-saytida tegishli bildirishnomani joylashtirish orqali Bank tariflariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish.
- 4.1.7. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Mijozdan komissiya va shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni undirish;
- 4.1.8. Quyidagi har bir qoidabuzarlik holati uchun Mijozdan BHMning 10 baravari miqdorida jarima undirish:
- a. Mijozning aybi bilan Bank uskunasining yo'qolishi, o'g'irlanishi yoki boshqa noqonuniy olib qo'yilishi;
 - b. Bank Uskunalarining ta'mirlashga yaroqsiz holga kelguncha shikastlanishi yoki yo'q qilinishi. Ta'mirlashga yaroqsizlik o'tkazilgan ekspertiza natijalari bo'yicha Bankning ta'mirlash-servis xizmati xulosasi asosida aniqlanadi. Ekspertiza o'tkazish xarajatlari Mijoz zimmasiga yuklatiladi. Uskunaning buzilganligi va/yoki yo'qolganligi fakti tegishli Uskunaning buzilganligi to'g'risidagi dalolatnoma va/yoki Uskunaning yo'qolganligi to'g'risidagi dalolatnoma bilan tasdiqlanadi.
- 4.1.9. ushbu Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda Mijozdan BHMning 15 baravari miqdoridagi neustoyka (jarima/penya) ni hisobdan chiqarish.
- 4.1.10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda shubhali (gumonli) operatsiyalarni aniqlash yoki oldini olish maqsadida Mijozning amaldagi faoliyati va uning Mijoz joylashgan joyda (yuridik/pochta manzilida) karta saqlovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha faolligi monitoringini amalga oshirish.
- 4.1.11. Mijozdan xizmatning amalga ko'rsatilganligi yoki tovarning Karta saqlovchisiga topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa materiallarni, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: videoyozuvlar, fotomateriallar, pasport nusxalari, sliplar, cheklar, tovar va/yoki kassa yukxatlari, hisob-fakturalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa shunga o'xshash hujjatlarni so'rash.
- 4.1.12. To'lov operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, To'lov tizimi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga asoslanib,

moliyaviy operatsiyalar va/yoki tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun limitlarni bir tomonlama o'rnatish va/yoki o'zgartirish.

4.1.13. Uskuna 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida uzluksiz foydalanilmagan taqdirda, uni Mijozdan olib qo'yish, keyinchalik ushbu Uskunani boshqa Mijozlar foydasiga qayta taqsimlash.

4.1.14. holatlar aniqlangunga qadar Tranzaksiya summasini ushlab qolish yoki Mijoz foydasiga ilgari amalga oshirilgan to'lovni bekor qilish, agar:

- a. Tranzaksiya ma'lumotlari ushbu Shartnoma shartlari buzilgan holda taqdim etilgan;
- b. Karta saqllovchisi Tranzaksiyaga nisbatan da'vo qo'zg'atdi va ushbu da'vo arizasi TT va/yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli sudi tomonidan qanoatlantirildi;
- c. Mijozga nisbatan tugatish yoki ma'muriy qayta bo'ysunish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunday vaziyatda, vakolatli organlar huquqiy vorislik to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar Tranzaksiyalar bo'yicha to'lovlar to'xtatib turiladi.

4.1.15. Bank manziliga kelib tushgan qaytariladigan to'lovlar summasini Mijozning hisobvarag'idan akseptsiz hisobdan chiqarish.

4.1.16. Haqiqiy emas deb topilgan tranzaksiyalar bo'yicha mablag'larni o'tkazmaslik.

4.1.17. Mijozning hisobvarag'iga o'tkazilishi kerak bo'lgan Tranzaksiya summalaridan ushlab qolish:

- a. Tariflarda ko'rsatilgan ushbu Shartnomaga muvofiq xizmatlar ko'rsatish uchun Bank komissiyalari va to'lovlari summasi;
- b. qaytarish tranzaksiyalari bo'yicha summalar;
- c. haqiqiy bo'lmagan / firibgarlik tranzaksiyalari summalar;
- d. Mijozning Bank oldida qarzdor bo'lgan har qanday summasi, shu jumladan Bankning jarimalari va xarajatlari/zararlari summasi Uskunani tiklash qiymati va/yoki Uskunani tiklash (butlash) zarur bo'lgan taqdirda uning bozor qiymati (butlovchi qismlar) miqdorida.

4.1.18. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, ushbu Shartnoma, shuningdek, To'lov tizimi qoidalari va yo'riqnomalari bilan nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish. Bunda, Bankning Mijoz tomonidan sodir etilgan muayyan qonunbuzarlik bo'yicha biron-bir huquqni amalga oshirishdan voz kechishi, takroriy yoki davom etayotgan qonunbuzarlik holatida ham shu huquqni amalga oshirishdan voz kechganligini anglatmaydi.

4.2. Mijoz huquqlari:

4.2.1. amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha ko'chirmalarni taqdim etish to'g'risida Bank manziliga yozma so'rovlar yuborish.

4.2.2. Bank Uskunalaridan foydalanish qoidalari bo'yicha Mijoz xodimlarini qo'shimcha o'qitish to'g'risida Bankka yozma murojaat qilish.

4.2.3. inkassatsiya qilingan pul mablag'lari summasi yoki joriy operatsion kun uchun o'tkazilgan Tranzaksiyalar summasi va uning hisobvarag'ida aks ettirilgan summa o'rtasida nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, Tranzaksiyalar o'tkazilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida tegishli Tranzaksiyalar o'tkazilganligini tasdiqlovchi Sliplarni majburiy ravishda ilova qilgan holda bunday nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun Bankka yozma so'rov bilan murojaat qilish.

- 4.2.4. agar Bank tomonidan berilgan Uskuna Mijozga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qolsa, Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilish.
- 4.3. Mijoz quyidagi huquqqa ega emas:
- 4.3.1. to'lov qaytarilganda naqd pul berish. Pul mablag'larini qaytarish faqat tegishli summani Karta saqlovchining karta hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- 4.3.2. Stop-listga kiritilgan kartalar orqali tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish.
- 4.3.3. Bank Uskunalarini, sarflash materiallarini, shuningdek, Tranzaksiyalar va ularni amalga oshirish usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (shu jumladan - nazorat yoki kuzatuv vakolatlariga ega bo'lgan organlarning so'roviga ko'ra).
- 4.3.4. taqdim etish shaklidan qat'i nazar, ilgari Bankka o'tkazilgan Tranzaksiyalarni qayta ishlashga yuborish.
- 4.3.5. noqonuniy faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, Uskunadan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid maqsadlarda yoki Bank nuqtayi nazaridan ruxsat etilmagan yoki yo'l qo'yilmaydigan maqsadlarda foydalanish.
- 4.4. Mijoz majburiyatlari:
- 4.4.1. ushbu Shartnomaning 4.1.1-bandida nazarda tutilgan hollarda uchinchi shaxslar tomonidan belgilangan shartlarga, shu jumladan ommaviy ofertalarga rozilik berish.
- 4.4.2. sotiladigan tovarlar va/yoki ko'rsatiladigan xizmatlar uchun naqd pul bilan to'lash shartlariga o'xshash shartlarda faqat Stop-listga kiritilmagan amaldagi Kartalarni to'lashga qabul qilish.
- 4.4.3. xizmat ko'rsatiladigan binoda Bank tomonidan taqdim etilgan reklama materiallari, peshlavhalar va boshqa axborot belgilarini qulay va ko'rgazmali shaklda joylashtirish.
- 4.4.4. Bank tomonidan ma'qullangan nomlar, logotiplar va/yoki tasvirlardan faqat iste'molchilarni Kartalardan foydalangan holda to'lov imkoniyati to'g'risida xabardor qilish maqsadida foydalanish.
- 4.4.5. Karta Stop-listga kiritilganligi aniqlangan taqdirda (shu jumladan, Uskuna displeyida tegishli bildirishnoma ko'rsatilganda), amaldagi qonunchilik talablarini buzmasdan uni ushlab turish uchun barcha mumkin bo'lgan va oqilona choralarni ko'rish.
- 4.4.6. faqat Bank tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish va Uskunani ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilishni ta'minlash.
- 4.4.7. Uskuna turiga qarab, operatsiyalar natijalarini kuniga kamida bir marta solishtirish, yakuniy hisobotlarni (shu jumladan inkassatsiya kvitansiyalarini) 1 (bir) yil davomida saqlash va ularni Bankning yozma so'roviga ko'ra 3 (uch) ish kuni davomida taqdim etish.
- 4.4.8. o'z hisobidan Uskunaning Internet tarmog'iga doimiy ulanishini, shuningdek, undan foydalanishning butun muddati davomida uning texnik sozligini ta'minlash.
- 4.4.9. Uskuna orqali to'lov qabul qilinganda Slipni ikki nusxada berish: bir nusxasi Karta saqlovchisiga beriladi, ikkinchisi Mijozda saqlanadi.
- 4.4.10. Kartalar va/yoki QR-kodlar yordamida amalga oshirilgan operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish uchun Uskunaning to'g'ri ishlashini ta'minlash, shu jumladan uning ERP tizimlari (mavjud bo'lsa) bilan integratsiyalashuvini yo'lga qo'yish.

- 4.4.11. Xalqaro to'lov tizimi kartasidan 1 000 (bir ming) AQSH dollariga teng yoki undan ortiq miqdordagi to'lovni qabul qilishda, Bankning so'roviga ko'ra tegishli Tranzaksiya amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (masalan, fiskal chek) taqdim etish.
- 4.4.12. amalga oshirilayotgan savdo-xizmat ko'rsatish faoliyati turining har qanday o'zgarishi to'g'risida bunday o'zgarish yuz bergan vaqtdan boshlab 3 (uch) ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda Bankni xabardor qilish.
- 4.4.13. Uskunaning texnik nosozligi aniqlangan taqdirda - bu haqda Bankni 1 (bir) ish kuni ichida xabardor qilish va nosoz Uskunani qaytarish Dalolatnomasida belgilangan tartibda qaytarish.
- 4.4.14. Uskunaning yo'qolishi, ishdan chiqishi yoki yaroqsiz holga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Bunday holatlar yuzaga kelgan taqdirda, bu haqda Bankni darhol xabardor qilish.
- 4.4.15. Bank so'rov yuborgan va/yoki Tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar tugatilgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Uskunani soz holatda qaytarish.
- 4.4.16. amaldagi Tariflarga muvofiq Bank foydasiga komissiya va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida to'lash.
- 4.4.17. Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Tariflarga muvofiq, Uskunaning texnik va tashqi holati uchun Bank oldida javobgarlikni zimmasiga olish.
- 4.4.18. Bankning so'roviga binoan o'tkazilgan tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni va karta saqlovchilari oldidagi majburiyatlarning bajarilishini tasdiqlovchi hujjatlarni (shu jumladan, foto, video, tovar va kassa hujjatlarini) so'rov olingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay taqdim etish. Ko'rsatilgan hujjatlar xizmat ko'rsatilgan yoki tovar jo'natilgan vaqtdan boshlab kamida 120 (bir yuz yigirma) kalendar kun davomida Mijoz tomonidan saqlanishi lozim.
- 4.4.19. tovar yetkazib berilmaganda, xizmat ko'rsatilmaganda, tovar qaytarilganda yoki boshqa qonuniy asoslar mavjud bo'lganda - pul mablag'larini Karta saqlovchisiga faqat naqd pulsiz shaklda qaytarish.
- 4.4.20. Mijozning aybi bilan ushbu Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda Bankka yetkazilgan zararlarni qoplash.
- 4.4.21. Elektron aloqa kanallari orqali 3 (uch) ish kuni ichida Bankni Uskunadan foydalanish manzili o'zgarganligi to'g'risida xabardor qilish.
- 4.4.22. Uskunadan ketma-ket 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida foydalanilmagan taqdirda, uni qaytarib berish lozim.
- 4.4.23. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan kelib chiqadigan faoliyatni amalga oshirish uchun talab qilinadigan barcha zarur ruxsat beruvchi, litsenziyalovchi va boshqa huquqni belgilovchi hujjatlarning mavjudligini ta'minlash.
- 4.4.24. Bankni, shuningdek, u jalb qilgan uchinchi shaxslarni ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq har qanday da'volar, talablar, shikoyatlar, zararlar va boshqa oqibatlardan himoyani ta'minlash.
- 4.4.25. Bank va/yoki jalb etilgan uchinchi shaxslar tomonidan o'zlarining rasmiy veb-saytlarida, xizmat ko'rsatish shartlarida, ommaviy ofertalarda va boshqa ochiq manbalarda joylashtirilgan xizmat ko'rsatish shartlaridagi o'zgarishlarni mustaqil ravishda va o'z vaqtida kuzatib borish.
- 4.5. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

5. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA TARTIBI

- 5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Xizmatlar ko'rsatilganligi uchun Mijoz Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Bankka Komissiya to'laydi.

5.2. Uskunalaridan foydalangan holda karta saqlovchilariga xizmat ko'rsatish uchun to'lov Bank tomonidan Tomonlar Uskunani qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolagan kundan keyingi sanadan boshlab har oyda undiriladi. Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini yechib olish avtomat tarzda amalga oshiriladi.

5.3. Komissiyani keyinchalik yechib olish har oyda birinchi yechib olish amalga oshirilgan kalendar kunning o'zida amalga oshiriladi. Agar bunday sana tegishli kalendar oyda (masalan, 29, 30 yoki 31-kuni) bo'lmasa, hisobdan chiqarish oyning oxirgi kalendar kunida sodir bo'ladi.

5.4. Mijoz tomonidan to'langan komissiya qaytarilmaydi.

Bank har oyda oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechiktirmay mijozga elektron hisob-fakturani shakllantiradi va yuboradi. Mijoz ko'rsatilgan hisob-fakturani olgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida uni imzolash majburiyatini oladi.

Mijoz tomonidan imzolangan hisob-faktura nusxasi ko'rsatilgan muddatda taqdim etilmagan va yozma e'tirozlar bo'lmagan taqdirda, hisob-faktura imzolangan va yuridik kuchga ega hisoblanadi.

5.5. Mijozning hisobvarag'ida Komissiyani to'lash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda, shuningdek, Mijozning Bank oldida Tranzaksiyalarni amalga oshirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lsa, Bank ko'rsatilgan qarzdorlik to'liq qoplangunga qadar Mijozga Uskunadan foydalanishni to'xtatib turishga, shuningdek, Uskunani qaytarib olishga (qaytarishni talab qilishga) haqli.

5.6. TT kartalari bo'yicha tranzaksiyalarni qayta ishlash uchun komissiya Bank tomonidan bunday tranzaksiyalar bo'yicha Mijozga o'tkazilishi kerak bo'lgan summadan Tariflarda belgilangan miqdorda ushlab qolinadi.

5.7. Mijoz tomonidan to'langan komissiyalar qaytarilmaydi.

5.8. Shartnoma bekor qilingan yoki to'xtatilgan taqdirda, Bank Mijozdan Shartnoma bekor qilingan yoki to'xtatilgan kunda, bekor qilish yoki to'xtatish sanasidan qat'i nazar, Tariflarga muvofiq terminallarga xizmat ko'rsatish uchun oylik Komissiya to'liq miqdorini akseptsiz tartibda ushlab qoladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, ushbu Shartnoma shartlariga, shuningdek, to'lov tizimining qo'llaniladigan qoidalariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Mijozning aybi bilan Bankka ushbu Shartnoma shartlarining buzilishi bilan bog'liq moddiy yoki moliyaviy zarar yetkazilgan taqdirda, Mijoz Bankka yetkazilgan zararni to'liq hajmda qoplashi shart.

6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

6.3.1. ushbu Shartnoma shartlarini buzgan holda amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini qoplash uchun;

6.3.2. Bankning maqsadga muvofiq nazoratidan tashqarida bo'lgan holatlar tufayli pul mablag'larini o'tkazishni kechiktirganlik uchun;

6.3.3. To'lovlarni qayta ishlashda yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari, jumladan, to'lov tizimidagi nosozliklar sababli yuzaga kelgan uzilishlar uchun;

6.3.4. Mijoz tomonidan operatsiyalar bo'yicha natijalarni o'z vaqtida solishtirmaslik, shu jumladan texnik nosozliklar, uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari yoki Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan Tranzaksiyalarni bekor qilish yoki bloklash uchun;

6.3.5. Mijozda Tranzaksiya amalga oshirilganligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar yoki boshqa ma'lumotlar yo'qligi uchun;

- 6.3.6. Uskunadan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalarning oqibatlari uchun, agar bunday operatsiyalar Mijozning noqonuniy xatti-harakatlari, jumladan firibgarlik, qalbaki mahsulotlarni sotish, sifatsiz xizmatlar ko'rsatish va boshqa noqonuniy xatti-harakatlar natijasida amalga oshirilgan bo'lsa;
 - 6.3.7. firibgarlik, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki ushbu Shartnoma shartlariga va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan boshqa harakatlar natijasida sodir etilgan Tranzaksiyalar bilan bog'liq zararlar uchun;
 - 6.3.8. Uskunaga ruxsatsiz kirish natijasida yuzaga kelgan Mijozning bevosita yoki bilvosita zararlar, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari, ma'lumotlarni buzish, o'g'irlash, qalbaki kartalardan foydalanish yoki boshqa noqonuniy harakatlar mavjud bo'lganda - Bankning aybi bo'lmaganda;
 - 6.3.9. Mijoz yoki uchinchi shaxslarning aybi bilan yuzaga kelgan uskunaning ishlamay qolishi, nosozligi yoki boshqa texnik muammolari uchun;
 - 6.3.10. davlat organlari, aloqa, to'lov tizimi operatorlari yoki Bank nazorati ostida bo'lmagan boshqa tashkilotlar tomonidan joriy etilgan me'yoriy, texnik yoki boshqa cheklovlar tufayli xizmatlar ko'rsatishdagi uzilishlar uchun.
- 6.4. Mijoz quyidagilar uchun javobgar:
- 6.4.1. Sliplar/Cheklarni saqlash va Bankka o'z vaqtida taqdim etish uchun;
 - 6.4.2. Mijoz tomonidan tegishli ma'lumotlar o'z vaqtida yangilanmaganligi sababli Stop-listdagi kartalardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirganlik uchun;
 - 6.4.3. Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlarining buzilishi natijasida Bankka yetkazilgan har qanday zarar uchun;
 - 6.4.4. Bank tomonidan vaqtinchalik foydalanishga berilgan Uskunaning saqlanishi, butligi, zarur darajada ishlatilishi va texnik holati, shuningdek, Mijozning aybi bilan Uskunaning yo'qolishi yoki buzilishi natijasida Bank ko'rgan zararlar uchun;
 - 6.4.5. Cheklarni rasmiylashtirishning to'g'riligi, shuningdek, Bankka taqdim etiladigan barcha ma'lumotlarning ishonchliligi uchun;
 - 6.4.6. Tranzaksiyani amalga oshirishda summani kiritishning to'g'riligi uchun;
 - 6.4.7. Kartalardan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishi uchun;
 - 6.4.8. ushbu Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda o'ziga yetkazilgan zarar uchun.
- 6.5. Jarima sanksiyalarini to'lash, zararlarini qoplash, shuningdek, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa javobgarlik choralari qo'llash tegishli Tomonni ushbu Shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni, shu jumladan ijro muddati sanksiyalar qo'llanilgandan keyin boshlanadigan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

7. USKUNALARNI TOPSHIRISH VA QAYTARISH TARTIBI

- 7.1. Uskunalarni Mijozga topshirish Bank tomonidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan va ikkala Tomonning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan Uskunalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (ushbu Shartnomaning 3-ilovasi yoki Bank vakili tomonidan taqdim etilgan boshqa shakl) asosida amalga oshiriladi.
- 7.2. Uskunalarni Bank manziliga qaytarish Mijoz tomonidan yozma shaklda rasmiylashtirilgan va ikkala Tomon imzolagan Uskunani qaytarish dalolatnomasi (ushbu Shartnomaga 4-ilova yoki Bank vakili tomonidan taqdim etilgan boshqa shakl) asosida amalga oshiriladi.
- 7.3. Tomonlar qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolagan sana Uskunani topshirish sanasi hisoblanadi. Qaytarish dalolatnomasini imzolagan sana Uskunani qaytarish sanasi hisoblanadi. Uskunaning tasodifan yo'qolishi, buzilishi yoki ishdan chiqishi xavfi u topshirilgan vaqtdan boshlab Mijozga o'tadi va Bankka qaytarilgunga qadar saqlanadi.

8. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA O'ZGARTIRISH

8.1. Ushbu Shartnoma quyidagi holatlarda bekor qilinishi yoki tugatilishi mumkin:

- 8.1.1. Bankning tashabbusi bilan bir tomonlama suddan tashqari tartibda - ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda;
 - 8.1.2. Tomonlardan birining tashabbusi bilan - Shartnomani bekor qilish yoki to'xtatishning taxmin qilinayotgan sanasidan kamida 10 (o'n) bank kuni oldin boshqa Tomonga yozma xabarnoma yuborish sharti bilan. Bunda Mijoz:
 - topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida topshirilgan Uskunani Bankka soz, butun va shikastlanmagan holda qaytarishi shart;
 - Uskunalar ta'mirlashga yaroqsiz holga kelguncha yo'qolgan, buzilgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda - Bankka BHMning 10 baravari miqdorida jarima ko'rinishidagi zararni qoplashi shart;
 - fiskal modul mavjud bo'lganda - uning to'g'ri o'chirilishini o'z hisobidan ta'minlashi shart.
 - 8.1.3. ushbu Shartnoma shartlarida va/yoki Tomonlarning qo'shimcha kelishuvlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 8.2. Ushbu Shartnoma bekor qilingan yoki to'xtatilgan taqdirda, Mijoz tomonidan ilgari to'langan komissiya, yig'imlar yoki Bank tariflarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar qaytarilmaydi.
- 8.3. Bank ushbu Shartnomaga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo'lib, buni o'zgartirilgan Umumiy shartlarni o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qilish orqali amalga oshiradi — www.tbcbank.uz.

O'zgarishlar to'g'risidagi xabarnoma Mijozga Shartnoma doirasida foydalaniladigan elektron aloqa kanallari orqali ham yuborilishi mumkin.

Umumiy shartlarning o'zgartirilgan tahriri, agar amaldagi qonunchilik yoki Bankning ichki hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, Bank veb-saytida joylashtirilgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun o'tgach kuchga kiradi. Agar Umumiy shartlarning ayrim qoidalar Bankning maxsus ichki hujjatlari bilan tartibga solingan bo'lsa, bunday qoidalar tegishli hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda o'zgartiriladi.

Agar yangi tahrirdagi Umumiy shartlar kuchga kirgan sanaga qadar Mijoz Bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma ariza yubormasa, bunday o'zgarishlar ular kuchga kirgan vaqtdan boshlab Mijoz tomonidan qabul qilingan (akseptlangan) hisoblanadi.

9. YAKUNIY SHARTLAR

- 9.1. Shartnoma Mijoz ushbu Ofertani qabul qilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) yil muddatga amal qiladi. Agar Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan 20 (yigirma) bank kuni oldin Tomonlardan hech biri uni bekor qilish niyatini bildirmasa, Shartnoma amal qilish muddati har bir keyingi kalendar yilga uzaytirilgan hisoblanadi.
- 9.2. Mijoz, agar mavjud bo'lsa, Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi qarzdorliklarni to'lash yuzasidan barcha majburiyatlarini bajaradi.
- 9.3. Ushbu bilan Mijoz Bankka Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida va u tugagandan so'ng qo'shimcha 6 (olti) kalendar oyi mobaynida chaqirib olinmaydigan, so'zsiz, bevosita va haqiqiy huquqni beradi. Bu huquq Shartnoma shartlariga muvofiq Bankka tegishli mablag'larni, shuningdek, amaldagi qonunchilik, Shartnoma va To'lov tizimi qoidalarida ko'rsatilgan hollarda Karta saqlovchilariga qaytarilishi kerak bo'lgan mablag'larni Shartnoma predmetiga tegishli bo'lgan istalgan boshqa bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan so'zsiz tartibda yechib olish/tasarruf etish huquqini beradi.

- 9.4. Ushbu Shartnomani bajarish, o'zgartirish, bekor qilish yoki talqin qilish bilan bog'liq barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Kelishuvga erishishning imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etish uchun O'zbekiston Respublikasining sud organlariga taqdim etiladi.
- 9.5. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan holatlarda, Tomonlar KBX qoidalariga amal qiladilar, tegishli tartib-qoidalar mavjud bo'lmaganda esa - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga amal qiladilar.

10. ILOVALAR

- 10.1. Ushbu Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi va asosiy matn bilan teng yuridik kuchga ega:
- 10.1.1. 1-ilova - Visa va Mastercard to'lov tizimlari kartalari bo'yicha tranzaksiyalarga e'tiroz bildirish tartibi;
 - 10.1.2. 2-ilova - Uskunalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;
 - 10.1.3. 3-ilova - Uskunani qaytarish dalolatnomasi.

Visa va Mastercard to'lov tizimlari kartalaridan foydalanib amalga oshirilgan tranzaksiyalarga e'tiroz bildirish tartibi

1. Chargeback jarayonida qo'llaniladigan atamalar

- 1.1. Pre-arbitration — To'lov tizimi (TT) qoidalariga bilan belgilangan tartib-taomili bo'lib, unda bir TT ishtirokchisi boshqa TT ishtirokchisiga TT Arbitraj qo'mitasiga murojaat qilmasdan tranzaksiya summasi yoki uning bir qismi bo'yicha moliyaviy nizoni hal qilishni taklif etadi. TT, pre-arbitraj tartibini yakunlash natijalariga ko'ra, tranzaksiya summasi yoki uning bir qismini TT ishtirokchilarining hisobvaraqlaridan ushlab qoladi yoki ularga o'tkazadi.
- 1.2. Representment — To'lov tizimi qoidalariga muvofiq, Chargebackka javoban Bank-emitent hisobidan Bank foydasiga bahsli tranzaksiya summasini ushlab qolish.
- 1.3. Arbitraj qo'mitasi - To'lov tizimi (TT) qoidalarida belgilangan standart nizoli sikl doirasida da'vo ishi nizoni hal qilishga olib kelmagan hollarda, nizoli operatsiya uchun javobgarlikni To'lov tizimi ishtirokchilaridan biriga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan To'lov tizimi organi. Arbitraj qo'mitasining moliyaviy javobgarlikni TT ishtirokchilaridan biriga yuklash haqidagi qarori yakuniy hisoblanadi va keyinchalik TT orqali unga shikoyat qilib bo'lmaydi.
- 1.4. NJ - Visa yoki Mastercard kartasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyaga nisbatan emitent bank tomonidan to'lov tizimi orqali boshlanadigan nizoli jarayon.
- 1.5. Qoplash/O'tkazish - Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda Bank tomonidan Mijoz foydasiga o'tkazilishi kerak bo'lgan tranzaksiyalar uchun pul mablag'lari.
- 1.6. Tranzaksiya hujjatlari - bu nizoli Tranzaksiya bo'yicha Mijozning munosabatini va To'lovchidan Tranzaksiya summasini ushlab qolishning qonuniyligini tasdiqlovchi matn yoki rasm shaklidagi dalillar. Mijoz Bank so'roviga javoban Tranzaksiya hujjatlarini elektron aloqa kanallari orqali yuboradi. Bank esa Tranzaksiya hujjatlarini To'lov tizimi qoidalarida nazarda tutilgan hujjat aylanishi tizimi orqali Emitent-bankka uzatadi.
- 1.7. Tranzaksiya - operatsiyalarning quyidagi turlarini o'z ichiga oluvchi umumiy ta'rif: To'lov operatsiyasi; Qaytarish operatsiyasi.
- 1.8. Qaytarish operatsiyasi - Mijozning tashabbusi bilan To'lovchi foydasiga ilgari amalga oshirilgan to'lov operatsiyasi bo'yicha pul mablag'larini to'liq yoki qisman qaytarishda amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyasi. Qaytarish tranzaksiyasi summasi asl to'lov tranzaksiyasi summasidan oshmasligi kerak.
- 1.9. To'lov/O'tkazma tranzaksiyasi - To'lovchi yoki Mijoz tashabbusi bilan To'lovchining Tovarlar/Xizmatlarni sotib olishi yoki pul mablag'larini o'tkazishi uchun Karta yordamida amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyasi.
- 1.10. To'lov tizimi (TT) qoidalariga — TT ishtirokchilari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan TT qoidalariga, standartlari va boshqa hujjatlari.

2. Visa va Mastercard kartalari bo'yicha tranzaksiyalarga e'tiroz bildirish tartibi

- 2.1. Visa yoki Mastercard kartasi bo'yicha tranzaksiyaga e'tiroz bildirilganda, Emitent bank To'lov Tizimi Qoidalarida ko'zda tutilgan hujjat aylanish tizimi orqali Bankka ma'lumot yuboradi, To'lov Tizimi esa Chargeback jarayonini shakllantiradi.
- 2.2. NJ qabul qilinganda, Bank Mijozga tranzaksiya bo'yicha hujjatlarni so'rab murojaat yuboradi.

- 2.3. Agar Mijoz NJ bilan roziligini bildirsa yoki 5 kalendar kun ichida Bank so'roviga javob bermasa, da'vo ishi emitent Bank foydasiga yakunlangan hisoblanadi, bunda nizoli Tranzaksiya summasi Qoplashdan ushlab qolinadi yoki Shartnomaga muvofiq Bankka boshqacha tarzda to'lanadi.
- 2.4. Agar Mijoz NJ bilan rozi bo'lmasa, Mijoz Bank so'rovi sanasidan boshlab 5 kalendar kundan kechiktirmay Tranzaksiya bo'yicha hujjatlarni taqdim etadi.
- 2.5. Tranzaksiya hujjatlarini qabul qilgandan so'ng, Bank NJga javob shakllantiradi va to'lov tizimi qoidalarida nazarda tutilgan hujjat aylanish tizimi orqali tranzaksiya hujjatlarini emitent-bankka yuboradi.
- 2.6. Agar bank-emitent NJga berilgan javobga rozi bo'lsa, da'vo jarayoni Bank foydasiga yakunlanadi.
- 2.7. Bank-emitent NJga berilgan javobga rozi bo'lmagan taqdirda, bank-emitent mazkur javobni rad etadi.
- 2.8. Agar bank-emitent NJga javobni rad etsa, Bank Mijozga bank-emitent tomonidan e'tirozni davom ettirish to'g'risida xabar beradi, e'tirozni davom ettirish sababini ma'lum qiladi, shuningdek, ishni Arbitraj qo'mitasiga topshirish uchun Mijozning roziligini so'raydi.
- 2.9. Agar Mijoz ishni Arbitraj qo'mitasiga topshirishdan bosh tortsa yoki Bank so'roviga javobni Bank so'rovi sanasidan boshlab 2 kalendar kun ichida taqdim etmasa, da'vo ishi emitent Bank foydasiga yakunlangan deb hisoblanadi, To'lov tizimi Chargebackni shakllantiradi, bunda nizoli Tranzaksiya summasi Qoplashdan ushlab qolinadi yoki Shartnomaga muvofiq Bankka boshqacha tarzda to'lanadi.
- 2.10. Agar Mijoz Bankning so'rovi sanasidan boshlab 2 kalendar kun ichida ishni Arbitraj qo'mitasiga o'tkazishga rozilik bersa, Bank ishni Arbitraj qo'mitasiga o'tkazadi. Zarur hollarda, Mijoz ilgari taqdim etilmagan e'tiroz bildirilgan Tranzaksiyaga nisbatan Mijozning munosabatini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlar va sharhlarni taqdim etadi.
- 2.11. Arbitraj qo'mitasi tomonidan Bank foydasiga qaror qabul qilinganda, Bank Arbitraj qo'mitasi tomonidan qabul qilingan qaror haqida Mijozni xabardor qiladi.
- 2.12. Arbitraj qo'mitasi emitent bank foydasiga qaror qabul qilganda, To'lov tizimi Chargeback shakllantiriladi. Bunda e'tiroz bildirilgan Tranzaksiya summasi, shuningdek, ishni Arbitraj qo'mitasida ko'rib chiqqanlik uchun To'lov tizimi komissiyasi summasi Shartnomaga muvofiq Qoplashdan ushlab qolinadi yoki Bankka boshqacha tarzda to'lanadi.

Uskunalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasining shakli

Toshkent sh.

“TBC Bank” ATB nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi
_____, keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi, bir tomondan va
_____ nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi
_____, STIR _____, keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataladi,
ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb ataladi, quyidagilar to‘g‘risida ushbu Dalolatnomani
tuzdilar:

1. **Bank Savdo ekvayring shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida Uskunalarni topshirdi, Mijoz esa qabul qildi:**
 - Model: [modelni yozing]
 - Seriya raqami: [raqamni yozing]
 - Terminal identifikatsiya raqami (TID): [TIDni yozing]
 - IMEI (mavjud bo‘lsa): [yozing]
 - Ishlab chiqaruvchi: [yozing]
 - Chiqarilgan yili: [yozing]
 - Quvvat adapteri: [ha/yo‘q, xususiyatlar]
 - Kabellar va aksessuarlar: [tavsiflang]
 - Topshiriladigan POS-terminal narxi -
2. Uskunalar to‘liq va texnik jihatdan soz holatda topshirildi, bu Tomonlarning imzolari bilan tasdiqlanadi.
3. Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:
 - 3.1. Uskunalar ko‘zdan kechirildi, tashqi va/yoki yashirin shikastlanishlar, shuningdek, topshirish vaqtida nosozlik belgilari aniqlanmadi.
 - 3.2. Uskunaning to‘liqligi, texnik holati va tashqi ko‘rinishiga hech qanday e‘tiroz yo‘q.
 - 3.3. Uskunalardan Shartnoma shartlari va Bank ko‘rsatmalariga muvofiq foydalanishi shart.
 - 3.4. Uskuna yo‘qolgan, buzilgan yoki shikastlangan taqdirda, u Shartnoma shartlariga va Bankning amaldagi tariflariga muvofiq javobgar bo‘ladi.
4. Ushbu Dalolatnoma teng yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada - Tomonlarning har biri uchun bir nusxadan tuzildi.
5. **Tomonlarning imzolari:**

Bank:

_____/F.I.Sh./

Lavozim: _____

Imzo: _____

M.O‘. _____

Mijoz:

_____/F.I.Sh./

Lavozim: _____

Imzo: _____

M.O‘. _____

Uskunani qaytarish dalolatnomasi

Toshkent sh.

“TBC Bank” ATB nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi _____, keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi, bir tomondan va _____ nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi _____, STIR _____, keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataladi, ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb ataladi, quyidagilar to‘g‘risida ushbu Dalolatnomani tuzdilar:

1. Mijoz 20-yil “___” _____dagi ___-sonli Ekvayring shartnomasi bo‘yicha avval topshirilgan quyidagi uskunani (keyingi o‘rinlarda “Uskuna” deb ataladi) qaytardi va Bank uni qabul qildi:
 - Model: [modelni yozing]
 - Seriya raqami: [raqamni yozing]
 - Terminal identifikatsiya raqami (TID): [TIDni yozing]
 - IMEI (mavjud bo‘lsa): [yozing]
 - Ishlab chiqaruvchi: [yozing]
 - Chiqarilgan yili: [yozing]
 - Quvvat adapteri: [ha/yo‘q, xususiyatlar]
 - Kabellar va aksessuarlar: [tavsiflang]
2. Tomonlar quyidagilarni tasdiqlaydi:
 - 2.1. Qaytariladigan uskuna Bank tomonidan Mijoz ishtirokida tekshirildi.
 - 2.2. Mijoz Bankka shikastlangan, nosoz yoki yo‘qolgan Uskunaning qiymatini qoplash, shuningdek, BHMning 10 baravari miqdorida jarima to‘lash majburiyatini oladi.
 - 2.3. Zarar yetkazilganligi yoki to‘liq emasligi aniqlanganda, Bank Mijoz hisobidan texnik ekspertiza o‘tkazishga va zararni qoplash uchun hisob-fakturasini taqdim etishga haqli.
3. Ushbu Dalolatnoma teng yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada - Tomonlarning har biri uchun bir nusxadan tuzildi.
4. **Tomonlarning imzolari:**

Bank:

_____/F.I.Sh./

Lavozim: _____

Imzo: _____

M.O‘.

Mijoz:

_____/F.I.Sh./

Lavozim: _____

Imzo: _____

M.O‘.